



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
BANDLIK VA MEHNAT MUNOSABATLARI VAZIRLIGI

100031, Toshkent shahar, Mirobod ko‘chasi, 15-uy. Telefon: (+998 71) 239-41-21

www.mehnat.uz e-mail: info@mehnat.uz, mehnat@exat.uz

№ 01/00-02/09-8927

“05” oktabr 2022-yil

O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasiga

2022-yil 12-sentyabrdagi

12/1-1915-son topshiriq yuzasidan,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-iyuldagi PQ-5189-son va 2021-yil 24-avgustdagi PQ-5230-son qarorlari ijrosi yuzasidan vazirlik rahbar o‘rinbosarlari faoliyatining joriy yil III choragi yakunlari bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar samaradorligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar va muhokama etilgan Hay‘at yig‘ilishi bayoni ilovaga muvofiq taqdim etilmoqda.

Ilova ___ varaq.

Vazirning
birinchi o‘rinbosari



E. Muxitdinov



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
BANDLIK VA MEHNAT MUNOSABATLARI VAZIRLIGINING
HAY’AT MAJLISI BAYONI

2022-yil 05 -oktabr

18 -son

Toshkent shahri.

Raislik qiluvchi: N.Xusanov – Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri,
Hay’at raisi

Qatnashganlar: Hay’at a’zolari: E.Muxitdinov, B.Umurzakov, N.Yakubov, Q.Odinayev, Sh.Po‘latov, M.To‘rabekov, T.Mahmudov.
Vazirlik markaziy apparati boshqarma, bo‘lim (shu’ba) boshliqlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar Bandlik bosh boshqarma boshliqlari (ro‘yxat asosida)

HAY’AT KUN TARTIBI:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-iyuldagi PQ-5189-son hamda 2021-yil 24-avgustdagi PQ-5230-son Qarorlari va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-iyuldagi 467-son qarori ijrosi to‘g‘risida

(Xusanov, Muxitdinov, Umurzakov, Yakubov, Odinayev, Maxmudov, To‘rabekov, Toshmatov, Abdullayev,Xusanov)

Kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan Vazirlik Hay’at yig‘ilishi qayd etadiki, joriy yilning o‘tgan birinchi yarim yil davomida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan keng ko‘lamli kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Hay’at raisi N.B.Xusanov so‘zga chiqib, yuqorida qayd etib o‘tilgan qarorlarda belgilangan vazifalarni ijrosi to‘g‘risida to‘xtalib o‘tdi.

Xususan, joriy yilning yanvar-sentyabr oylari davomida tuman (shahar) Aholi bandligiga ko‘maklashish markazlari tomonidan **dastlabki** ma’lumotlarga asosan ish bilan band bo‘lmagan shaxslarga quyidagi bandlik xizmatlari ko‘rsatildi:

326,5 ming nafar ishsiz, shuningdek, chet eldan qaytib kelgan fuqarolarni mavjud bo‘sh ish o‘rinlariga **ishga joylashishiga** ko‘maklashildi;

147,6 ming band bo‘lmagan aholi obodonlashtirish, mavsumiy qishloq xo‘jaligi ishlari, qurilish va boshqa sahalarda haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb etildi;

Mehnat organlari yo‘llanmalari asosida **111,6 ming** nafar ish bilan band bo‘lmagan fuqarolar kasb-hunarga, tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitishga jalb etildi;

24,2 ming ishsiz, “**temir daftar**”, “**ayollar daftari**” va “**yoshlar daftari**”ga kiritilgan shaxslarga **59,2 mlrd.so‘m subsidiya** ajratildi.

Ishsiz fuqarolarni moddiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida **34,6 ming** nafar ishsizlarga ishsizlik nafaqasi tayinlanib, Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan **52,1 mlrd.so‘m** moliyalashtirib berildi.

Joriy yilning 9 oyi davomida xorijiy davlatlarga ishga joylashtirilganlar **27 193 nafarni** tashkil etdi.

Subsidiya hisobiga “O‘zagrosug‘urta” AJ va uning filiallari tomonidan **115 701 nafar** mehnat migrantlarining hayoti va sog‘ligi sug‘urta qilindi.

“Mikrokredit” bank tomonidan xorijga chiqib ketayotgan **862 nafar** mehnat migrantlariga **1 724,0 mln.** so‘m miqdorida mikroqarzlar ajratildi.

Tashkillashtirilgan tartibda mehnat migratsiyasiga ketayotgan **1 737 nafar** fuqaroning xorijiy tillar bo‘yicha malaka imtihonlarini topshirish bilan bog‘liq xarajatlarini, **142 nafar** fuqaroning yo‘l chiptasini xarid qilish bilan bog‘liq xarajatlarini qoplash uchun kompensatsiya to‘landi.

Hisobot davrida 41 028 nafar, xorijga ishlash uchun ketish istagi bo‘lgan fuqarolar kasb-hunarga va xorijiy tillarga o‘qitilmoqda, ulardan **37 553 nafari** (*30 ga yaqin turdagi*) kasblarga, **3 475 nafari** (*rus, nemis, koreys, ingliz, yapon va arab*) chet tillarga jalb qilindi.

Xorijda ishlayotgan mehnat migrantlarining **183 022 nafariga** axborot-maslahat xizmatlari va **6 063 nafariga** huquqiy yordam ko‘rsatildi.

2022 yilning 9 oyi davomida xorijiy davlatlardan **490,6 ming** nafar mehnat migrantlari vatanga qaytib keldi.

Yil boshidan xorijiy davlatlardan qaytib kelganlarning **382,2 ming** nafari (**78%**) “**Mahalla – mehnat organlari – sektor – Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi filiali**” tizimi asosida **uyma-uy yurib o‘rganildi**, qolgan **108,4 ming** nafari (**22%**) bilan monitoring ishlari davom ettirilmoqda.

Monitoringlar davomida xorijdan qaytib kelganlarning **262,2 ming** nafari rasmiy va norasmiy band bo‘lgan, **10,3 ming** nafari ma‘lum sabablarga ko‘ra mehnatga layoqatsizligi, **33,5 ming** nafari monitoring kuniga qadar ishlash uchun chet elga qaytib ketganligi hamda **39,7 ming** nafari vaqtincha ishsiz ekanligi aniqlandi.

Vaqtincha ishsiz bo‘lgan fuqarolar bilan o‘tkazilgan suhbatlar davomida ularning, **19,5 ming nafari xorijga qayta ishga ketish** istagini bildirganlar. Bunday toifadagi fuqarolarni Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining xududiy filiallari tomonidan tashkiliy tartibda xorijga yuborish choralari ko‘rilmoqda.

4 678 nafar fuqarolarni munosib ish o‘rinlariga ishga joylashtirish choralari ko‘rilmoqda.

347 nafar fuqaro o‘z tadbirkorligini boshlash istagini bildirgan bo‘lib, ularning jami **6,1 mlrd.so‘m** kredit mablag‘lariga ehtiyoji borligi aniqlandi. Hozirda ushbu fuqarolarning ro‘yxati shakllantirilib, kredit taqdim etish uchun tijorat banklariga yuborish ishlari amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, **166 nafar** fuqarolarga munosib ish topilgunga qadar ABKMLar tomonidan ishsizlik nafaqasi tayinlangan, **14 951 nafar** fuqarolar o'z ixtiyoriga ko'ra ishlashni rad etgan.

Shuningdek, ayrim kamchiliklar va yechimini kutayotgan muammolar ham borligi ta'kidlandi.

Birinchidan, xorijga vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ketayotgan fuqarolarning ketish xarajatlarini, xorijiy tillar yoki kasb bo'yicha malaka imtihonlarini topshirish bilan bog'liq xarajatlarni hamda "Ishchi viza"ni rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlarini qoplash uchun 3-chorakda kompensatsiyalar ajratilmagan.

Ikkinchidan, kvotada ortiq ishga qabul qilingan fuqarolar uchun subsidiya ajratish bo'yicha 3-chorak prognoz ko'rsatkichi 1,9 foizga bajarilgan.

Uchinchidan, ishsizlarni kasb-hunarga o'qitishga nodavlat kasb-hunar ta'limlari uchun grand mablag'lar ajratish borasida ishlar ham ortda qolmoqda.

Kun tartibidagi masalalar atroflicha muhokama qilinib, yig'ilish **qaror qiladi:**

QAROR QILADI:

1. Vazir o'rinbosarlari **E. Muxitdinov, B. Umurzakov, N. Yakubovlarning** joriy yilning o'tgan uchinchi choragida o'z faoliyatlari samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishish bo'yicha olib borgan ishlari yuzasidan bergan hisobotlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Vazirlikning Band bo'lmagan aholini ishga joylashtirish bo'yicha ishlarni tashkil etish boshqarmasi T.Maxmudov, Bandlikka ko'maklashish Davlat jamg'armasi mablag'laridan samarali va maqsadli foydalanish boshqarmasi A.Toshmatov, Tashqi mehnat migratsiyasi va qaytgan mehnat migrantlarning reintegratsiya dasturlari boshqarmasi Z.Asqarovlar belgilangan ish samaradorligini baholash ko'rsatkichlariga to'liq erishilmaganligi uchun ko'rsatib o'tilsin.

3. **Vazir o'rinbosarlari (E. Muxitdinov, B. Umurzakov, N. Yakubov):**

O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan hamda vazir tomonidan yuklatilgan vazifalarni bajarish, o'zlariga biriktirilgan tarmoq va sohalarida ish samaradorligini oshirish va yillik maqsadli ko'rsatkichlarga erishish bo'yicha ishlarni qat'iy nazoratga olsinlar.

Jumladan,

Vazirning birinchi o'rinbosari (E.Muxitdinov);

- O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijiy davlatlarda ishga joylashishlarini tashkillashtirish ishlari jadallashtirish;

- xorijga chiqishdan oldin kasb hunarga va xorijiy tillarga o'qitish;

- xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi fuqarolarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish;

- qaytib kelgan mehnat migrantlari bandligini ta'minlash va reintegratsiya qilish;

- ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi orqali O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasi hujjatlarida belgilangan ijrosi ta‘minlanishi zarur bo‘lgan topshiriqlar;

- sohaga oid yuridik va jismoniy shaxslar murojaatlari ijrosini ta‘minlash yuzasidan.

Vazir o‘rinbosari (B.Umurzakov);

- mehnat organlariga murojaat qilgan ish qidiruvchi fuqarolarni ishga joylashishiga ko‘maklashish;

- band qilingan (kvota) ish o‘rinlariga ishga joylashtirish;

- ishsiz deb e‘tirof etilgan fuqarolarga ishsizlik nafaqasi tayinlash;

- ishsiz va band bo‘lmagan aholini haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish;

- kvotalangan ish o‘rinlari uchun xarajatlarni qoplash hisobiga;

- ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi orqali O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasi hujjatlarida belgilangan ijrosi ta‘minlanishi zarur bo‘lgan topshiriqlar;

- sohaga oid yuridik va jismoniy shaxslar murojaatlari ijrosi ta‘minlash yuzasidan.

Vazir o‘rinbosari (N.Yakubov);

- Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan grantlar ajratishni moliyalashtirish masalasi;

- ishsizlarni kasbga o‘qitish va qayta tayyorlash hamda o‘quv markazlari xarajatlari;

- ishsizlik nafaqasi va boshqa moddiy ko‘maklar;

- jismoniy va yuridik shaxslarga mehnat huquqi va mehnat muhofazasi bo‘yicha huquqiy yordam ko‘rsatish;

- mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga va mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishi bo‘yicha monitoringlar o‘tkazish;

- mehnat va aholi bandligi to‘g‘risida aniqlangan qonunbuzilish holatlari;

- mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari bo‘yicha aniqlangan qonun buzilish holatlari;

- ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi orqali O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasi hujjatlarida belgilangan ijrosi ta‘minlanishi zarur bo‘lgan topshiriqlar;

- sohaga oid yuridik va jismoniy shaxslar murojaatlari ijrosi ta‘minlash yuzasidan.

4. Yig'ma axborot-tahlil departamenti (Sh.Po'latov) tomonidan vazir o'rinbosarlari faoliyati yuzasidan belgilangan III chorak ko'rsatkichlari belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritilsin

5. Mazkur Hay'at qarorini ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosarlari (E.Muxitdinov, B.Umurzakov, N.Yakubovlar) zimmasiga yuklansin.

Hay'at raisi

N.Xusanov

